

INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA TALABALARNING TEXNOLOGIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Sh.Sh.Shuxratov

Farg'ona davlat universiteti Texnologik ta'lim kafedrası dotsenti,

B.A.Asqarova

Farg'ona davlat universiteti Texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarning texnologik kompetensiyasini shakllantirish jarayonida talabalarning bilim darajasini oshirish, ta'lim va tarbiya jarayonlari samaradorligini yanada yuqori darajaga ko'tarish, texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va pedagogning boshqarish faoliyatida talabalar faolligini ta'minlash masalalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *kompetensiya, innovatsiya, texnologik ta'lim, texnologik jarayon, innovatsion ta'lim, innovatsion yondashuv.*

Аннотация. *В данной статье в процессе формирования технологической компетентности студентов рассматриваются вопросы повышения уровня знаний студентов, поднятия эффективности учебно-воспитательного процесса на более высокий уровень, организации технологических образовательных процессов и обеспечения активности студентов в процессе формирования технологической компетентности студентов. представлена управленческая деятельность педагога.*

Ключевые слова: *компетентность, инновация, технологическое образование, технологический процесс, инновационное образование, инновационный подход.*

Abstract. *In this article, in the process of forming the technological competence of students, the issues of increasing the level of knowledge of students, raising the efficiency of educational and educational processes to a higher level, organizing technological educational processes and ensuring the activity of students in the management activities of the pedagogue. information is provided.*

Keywords: *competence, innovation, technological education, technological process, innovative education, innovative approach.*

Kirish. *Ta'limni zamonaviy nuqtai nazardan innovatsion rivojlantirish, yuzaki qaraganda ancha oson tuyuladi, ammo bu ancha murakkab jarayon bo'lib, innovatsion ta'lim texnologiyalarini zamonaviy nuqtai nazardan puxta o'zlashtirish va ularga tayanish zarurati vijudga kelmoqda. Ushbu zaruriyat ta'lim jarayonlarni o'zlashtiruvchi ob'ekt, ya'ni pedagog faoliyatini faollashishi bilan amalga oshiriladi.*

Ma'lumki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-mafkuraviy va huquqiy-me'yoriy islohotlar mamlakat va jamiyat hayotida, ta'lim sohasidagi innovatsion xarakterga ega bo'lgan yondashuvlar bilan bilvosita bog'liq. Innovatsion ta'lim texnologiyalari bo'lajak mutaxassislarni innovatsion

xarakterga ega bo'lgan yondashuvlar faoliyatiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Innovatsion xarakterga ega bo'lgan yondashuvlar asosida dars jarayoni tashkil etilganda, talabalarda texnologik kompetentlilik sifati shakllana boshlaydi, buning uchun talabalar pedagogik va texnologik xarakterga ega bo'lgan innovatsiyalar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. Pedagogik va texnologik xarakterga ega bo'lgan innovatsion jarayonlar G'arb davlatlarida o'tgan asrning 50 yillari oxirlaridan boshlab, mustaqil O'zbekistonda esa, keyingi 10 yillikda olimlar tomonidan maxsus o'rganila boshlangan.

Asosiy qism. So'nggi yillarda mamlakatimiz olimlari tomonidan innovatsiya, innovatsion tafakkur, innovatsion faoliyat, innovatsion bozor, pedagogik va texnologik innovatsiyalar haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ta'lim jarayonida talabalarning texnologik kompetentsiyalarini shakllantirish jarayonida qator kamchiliklar mavjud. Bular quyidagilar:

- pedagogik xodimlarda innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda mehnat tarbiyasi va texnologik ta'lim maqsadi haqida zamonaviy tasavvurlar mavjud emas;

- talabalarning individual xususiyatlari va qiziqishlari yetarli darajada hisobga olinmaydi;

- texnologik ta'lim tarbiyasi atrof-muhitning mintaqaviy va milliy o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinmagan holda umumiy tarzda tashkil etiladi;

- talabalarda texnologik kompetentsiyalarni shakllantirishni tashkil qilish zamonaviy talablarga mos kelmasligi hollari mavjud;

- texnologik ta'lim va tarbiya moddiy-texnik bazasining yuqori emasligi hamda ushbu kamchiliklarning natijasi o'laroq talabalarda mehnatga ehtiyojning mavjud emasligi kabi masalalar o'rganilmaganligidir.

Talabalarda texnologik kompetentsiyani shakllantirish – talabalarni texnologik jarayonlar hayot tarziga tayyorlashga, umumiy farovonlik yo'lida aqliy va jismoniy mehnatga, amaliy hamda axloqiy-psixologik tayyorlikni shakllantirishga yo'naltirilgan o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning yaxlit uzluksiz jarayoni sifatida qarash kerak.

Qisqacha qilib aytganda talabalarda texnologik kompetentlilik darajasini shakllantirishning maqsadi - turli yo'nalishlarda halol, ijodiy mehnatga tayyorlikni shakllantirish, shaxsning salomatligini mustahkamlash, har tomonlama rivojlanishiga yordam berishdan iborat.

Talabalar egallashi lozim bo'lgan texnologik ta'lim va texnologik jarayonlarning o'zgarishlari, bizni o'rab turgan tevarak-atrofdagi barcha narsa va hodisalarni takomillashtirishga bo'lgan turlicha yondashishlar bilan bog'liq muammolarni o'rganishga yo'naltirilgan integrativ bilimlar yig'indisidan iborat.

Innovatsion yondashuv asosida tashkil etiladigan texnologik ta'limning birinchi yo'nalishi bu – amaliy faoliyatning turli shakllarida nazariy bilimlarni qo'llash asosida ilmiy texnologik dunyoqarashni shakllantirish.

Ikkinchi yo'nalishi – amaliy mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan texnologik ta'lim, uchinchi yo'nalishi – talabalarni doimiy ravishda ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish. Bunda talabalarning o'quv-bilish, mehnat va ijtimoiy faolligining birligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

Texnologik ta'limning to'rtinchi yetakchi yo'nalishida mehnat va umumtexnologik tayyorgarlikning umumiy asosi hisoblanmish bilim, mehnat faoliyati ko'nikma va malakalarning uzviy birligini ta'minlash nazarda tutiladi.

Texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish va pedagogning boshqarish faoliyatida quyidagi masalalarni yechish taqozo etiladi:

- o'qitishning dastlabki bosqichlaridayoq talabalarning mehnat faoliyatining u yoki bu turiga bo'lgan qobiliyatini aniqlash va ularni rivojlantirish;

- talabalarning hayotiy, shu jumladan, texnologik qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni kengaytirish maqsadida ularga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish;

- texnologiya fani mazmunining sifatiiy o'ziga xosligini va talabalarda shakllantiriladigan shaxsiy mehnat tajribasi va faoliyat ko'nikmalari komponentsiyalarini aniqlash;

- talabalarning qo'l mehnati sohasidagi amaliy faoliyat turlari va loyihalash faoliyatining birligi asosida texnologiya fani mazmunini bosqichma-bosqich egallashlariga imkon yaratish;

- pedagogik jarayon ishtirokchilarining yosh xususiyatlari, qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyatiga tayanib, moddiy mahsulotlar yaratish jarayonida ularning shaxsiy mehnat tajribasi va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o'quv topshiriqlari, vazifa va vaziyatli masalalar tizimini ishlab chiqish;

- texnologiya fanining tashkil etuvchilari (komponentlari) mazmuni, tuzilmasi va funktsional yo'nalishlarini ishlab chiqish.

Talabalarda texnologik kompetentsiyalarni shakllantirish mazmuni hozirgi sharoitda jamiyat va davlat tomonidan shaxsga bo'lgan talablar bilan belgilanadi. Uning umumiy maqsadi talabalarda texnologik qayta qurish faoliyatining o'ziga xosligi haqidagi bilimlar, tizimining shakllanishi hamda o'z faoliyatida yuqori natijalarga erishishga intilgan, intellektual-ma'naviy, jismonan rivojlangan va texnologik bilimlarga ega shaxsning shakllanishi bilan aniqlanadi.

Zamonaviy ilmiy-pedagogik adabiyotlarning tahlili talabalarda texnologik kompetentsiyalar mazmunini shakllantirishda hunarga oid texnokratik, mono-axborot va integrativ-texnologik yondashuvlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi.

Talabalarda texnologik kompetentsiyalarni shakllantirish mazmuniga ko'ra integrativ-texnologik xarakterga ega bo'lgan yondashuvlarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu yerda umumiy texnologiya fani gumanitar va tabiiy-matematik blokdagi fanlarning mazmuni bir-biriga qo'shib ijodiy loyihalar, topshiriqlar, mashqlarni bajarish, ishlab chiqarish mehnati ob'ektlarini tayyorlash,

talabalarning dars jarayonidagi faoliyati, shuningdek, ularning kichik ishlab chiqarishdagi ishtirokini nazarda tutadi.

Texnologik ta'lim jarayonlarining asosiy maqsadi yangi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda talabalarni ijtimoiy-foydali va unumli mehnati talabalarni mustaqil ijodiy mehnat faoliyatiga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Mamlakatimiz olimlari tomonidan texnologik ta'lim jarayonlarini tashkil etish yo'nalishi bo'yicha tadqiq etilgan bilimlarni amaliyotda tatbiq etishga, ijodiy, analitik fikrlashga, talabalarni yaratuvchanlik faoliyatining turlicha sohalarga jalb etish asosida ularda hamkorlikda ishlash tajribalari mamlakatimiz olimlari tomonidan o'rganilgan.

Xulosa va tavsiyalar. Innovatsion xarakterga ega bo'lgan yondashuvlar asosida talabalarda texnologik kompetentsiyalarni shakllantirish mazmuni va pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy nuqtai nazardan o'rganish natijasida, pedagogik va texnologik jarayonlar ta'sirida shakllanuvchi va uni amalga oshirish va rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi muhit, vaziyat va omil muhim rol o'ynashi aniqlandi.

Talabalarning texnologik kompetentsiyalarini shakllantiruvchi omil sifatida talabalarning bilim darajasini oshirish va ta'lim va tarbiya jarayonlari samaradorligini yanada yuqori darajaga ko'tarish, texnologiya fanida muqobil pedagogik va texnologik ta'lim jarayonlarni tashkil etish va boshqarish faoliyatini takomillashtirishda talabalar faolligini ta'minlash va aniq maqsadlarga ko'ra belgilangan vazifalarni bajarishda texnologiya fani o'qituvchisining motivatsiya jarayonlari muhim ahamiyatga ega ekan.

Talabalarda texnologik kompetentsiyalarni shakllantirish asoslarini muvaffaqiyatli hal etish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan fikrlashga oid quyidagi qobiliyatlarni rivojlantirish lozim:

- ko'proq talabalarning analitik faoliyatiga tayanadigan mavhumlashtirish va modellashtirishga bo'lgan qobiliyatlar;
- hal etiladigan vazifa shart-sharoitlari va omillarini doimo hisobga olishni, shuningdek, o'qitish jarayonida sintezni talab qiladigan umumlashtirishga bo'lgan qobiliyatlar;
- fikrlash jarayonlarini qayta o'zgartirish va o'ziga xos fikrlashda ifodasini topadigan ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Bu qobiliyatlar talabalarning butun o'quv va mehnat faoliyati davomida shakllanib boradi. Texnologik ta'limning mohiyati yuqorida ko'rsatilgan qobiliyatlarning talabalarda shakllanishi uchun eng maqbul shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov, M. M. (2023). DEVELOPMENT FACTORS OF COMPETENCE LEVEL OF TEACHER OF TECHNOLOGY. *Open Access Repository*, 4(03), 104-112.

2. Yakubjon Usmanov, Ikromova Komila Hamidullo qizi //Use of Innovative Technologies in Teaching Electrical Engineering// Texas Journal of Engineering and Technology. <https://zienjournals.com>. VOL. 9, JUNE, 2022. 97-99 page.

3. Tursunboy Axmedov, Siddikova Ranoxon Abdulxay qizi, Xusanova Lobarxon Murodovna //Basics of Wood Materials and Woodworking Technology// Texas Journal of Engineering and Technology. <https://zienjournals.com>. VOL. 9, JUNE, 2022. 100-102 page.

4. Аҳмедов, М., Рўзиматова, М., Аскарлова, Б., & Мадаминова, М. (2023). АМАЛИЙ ФАН ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК ВА БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИ КОМПЕТЕНТЛИГИ НУҚТАИ НАЗАРДАН ЁНДАШИШ МУҲИМ ОМИЛ. Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 2(7), 14–19.

5. Парпиева, О. Р., Ҳожикаримова, Г. Т., & Назирова, А. М. (2021). FORMATION OF STUDENT PEDAGOGICAL SKILLS BASED ON THE REQUIREMENTS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT. *Экономика и социум*, (6-2), 157-161.

6. Парпиева, О. Р., & Раззоқов, Б. Х. (2022). ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ ВА НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. *Scientific Impulse*, 1(5), 1204-1207.

7. Parpiyeva, O. R. (2022). Melikuzieva Zulhumor Sherqozi qizi, Abdullaeva Umidahon Uktamjon qizi. *INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES, THEIR NATURE, TYPES AND THEORETICAL FUNDAMENTALS*//Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 9, 123-126.

8. Parpiyeva, O. R., & Ruzimatova, A. (2022). CREDIT-MODULE SYSTEM OF EDUCATION. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(10), 76-80.

9. Rakhmanovna, P. O., & Tairovna, I. Z. (2023). INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES TYPES. *Scientific Impulse*, 1(10), 950-955.

10. Parpiyeva, O. R. (2022). Innovative Educational Technologies, Their Nature, Types And Theoretical Fundamentals. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 9, 123-126.

11. Парпиева, О. Р., & Болтабоева, Н. М. (2019). Этапы решения педагогической задачи. *Теория и практика современной науки*, (6 (48)), 388-390.

12. Парпиева, О. Р., & Назирова, А. М. (2021). ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ МУҲИТИ ТАЛАБЛАРИ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Экономика и социум*, (6-2 (85)), 157-161.

13. Qaxxorova Barchinoy Abdiraximovna, Ikromova Komila Hamidullo qizi, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi //INNOVATIVE METHODS USED IN THE EDUCATIONAL PROCESS// IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 IYUN / 2022 YIL / 19 – SON. 277-283 betlar.

14. Razzokov Bakhtiyor Khabibullaevich, Yokubjonova Mukaddaskhon Khusanboy kizi //Future Technological Education Developing Professional Skills for Teachers//. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 7-2022, 178-180 pages.